

Autizm Sindromi

Bo'riyeva Shahzoda¹

Annotatsiya: Yurtimizdagi global muammoga aylanayotgan autizm sindromli bolalar yetishib chiqmasligi uchun nimalarga e'tibor berishimiz lozim. Bolalarimiz gadjertlarga qarab bo'lib qolmasliklarini istab yozilgan.

Kalit so'zlar: autizm, sindrom, reaksiya, diqqat, go'daklik, homiladorlik, shizofreniya, o'smirlik, bolalik.

Bugungi kunda nafaqat butun dunyoni balki O'zbekistondagi barcha shahru-viloyatlarida uchraydigan kasallik haqida gapiradigan bo'lsa bu sirli kasallik hozirgi kunda olimlar tomonidan o'rganilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra hozirda dunyodagi har 88 ta bolaning birida kuzatilishi mumkin bo'lgan kasallik bilan autizm sindromi.

Autizm – grekcha “autos”, ya'ni “o'zim” degan ma'noni anglatib, reallikdan uzoqlashish, tashqi dunyodan ajralish va tashqi olam bilan kommunikativ funksiyaning buzilishi kabilarni o'z ichiga oluvchi sindrom hisoblanadi. Birinchi marta go'daklik yoki bolalik davrida kuzatilgan davvo-choralari qo'llanilmagan holatlarda davom etishi mumkin bo'lgan sindrom hisoblanadi. Go'daklik davrida noqulaylik reaksiyasining buzilishi zaif ovozli ogohlantirishlarga va atrof-muhitdagi kichik o'zgarishlarga javoban qo'rquv va yig'lashning haddan tashqari zo'ravonlik reaksiyalar, ammo kuchli ogohlantirishlarga zaif reaksiyalar kabi alomatlar diqqatni tortadi. Autizm atamasini birinchi bor Shveysar psixiator Eygen Breyler tomonidan 1910 yilda shizofreniya kasalligining belgilaridan biri sifatida ishlatildi. Autizm holati shizofreniya kabi kasallikda ko'proq namoyon bo'ladi. Bola vaqtini sezmaydi, hozirda ro'y berayotgan voqea-hodisalar o'tgan yoki kelasi zamon bilan almashtiradi, real voqea hodisalarni fantastic mavhum voqea hodisalari bilan aralastirib yuboradi. Autizm holatida bola faoliyati sustlashadi yoki keraksiz, noaniq faoliyat bilan shug'ullanadi. Bolaning xulq-atvori buzuladi, o'yin faoliyati qiziqishi sustlashadi, mayus holatda yuradi, katta va tengdoshlari bilan aloqada bo'lmaydilar, hech kim bilan gaplashishni istamaydi, ba'zilarida indamastlik (mulizm holati) kuzatiladi. 1943-yilda ingliz psixiotori Leo Kenner davolash amaliyotida 11 bolaning xulq-atvori, yurish-turishida o'xshash belgilarni hozirgi kunda ham autizm asosiy belgilari sifatida o'rganilmoqda. Shunga qaramay ko'p yillar mobaynida bolalar autizmi aqli zaiflik, shizofreniya kabi va boshqa ruhiy kasalliklarni belgilari sifatida o'rganilgan edi. Faqatgina 1981-yildan boshlab bolalar autizmi mustaqil nuqson sifatida qabul qilindi.

Erta bolalik autizmi 2 yoshgacha

Bolalik autizmi 2-11 yoshgacha;

O'smirlik autizmi 11-18 yoshlargacha.

Olimlarning fikricha, autizm kasalligining kelib chiqish sabablaridan biri bu homilani ona qornidalik davrida ma'lum bir turdagi oqsillarning yetishmovchiligi, ikkinchi sababi organizmda ikki xil og'ir metalning, qo'rg'oshin va simobni ko'payib ketishi. Uchunchi sababi atrof-muhitni ekologik buzilishi va homiladorlik paytida kuchi stress holatlarini kechishi. Anemiya va qon bosimining oshishi bularning hammasi autizmi kelib chiqish sabablari hisoblanadi.

Autizning asosiy belgilari bir yoshdan to uch yoshgacha davrda to'liq namoyon bo'ladi. Ota-onalar quyidagi belgilarga e'tiborli bo'lishlari kerak:

¹ ATMU Defektologiya yo'nalishi talabasi



- Bolaning ota-onasi bilan bo'lishini yoqtirmaslik (qo'liga olishi, quchoqlashishi, o'pishi va boshqa).
- Uch yoshar bolaning nutqi rivojlanmaganligi
- Biror kishi bilan bo'lishidan ko'ra o'zi bo'lishini yoqtirishi.
- Ular buyumlarni doim bir xil tartibda qo'yib chiqadilar.

Autizmga chalingan insonlar xarakteri 5 guruhga ajratiladi.

- Shaxs atrof-muhit bilan muloqotga kirishmaydi.
- Shaxs atrofdagilar bilan faqatgina ba'zi hollarda muloqotga kirishadi.
- Shaxs bemalol muloqotga kirishadi, lekin xulqida birlik alomatlarini ko'zga tashlanadi.

Leo Kenner autizm sindromini shaxslarda yuzaga keladigan muammolarini 3 ta asosiy guruhga ajratdi.

- Ijtimoiy muloqot bilan bog'liq muammolar
- O'zaro ta'sir bilan bog'liq muammolar
- Tasavvur bilan bog'liq muammolar.

Autizmni davolash maqsadida ortda qolayotgan jihatlarini korreksiya qilish uchun barcha turdagi autist bolalarga mos keladigan quyidagi chora tadbirlar qo'llash mumkin:

1. Gapirish qobiliyatini yaxshilash maqsadida logoped bilan mashg'ulotlar olib borish.
2. So'zlashish uchun rasmi kartochkalardan foydalanish yoki planshet, kompyuterda so'zlarni yozib o'rgatish.
3. Bola bilan xar xil o'yinlar o'ynash bu sferada faqat bir mutaxassis bilan.
4. Medikamentoz davo faqatgina qo'shimcha sifatida bolada kuchli aggressiya bo'lsagina buyuriladi.

Xulosa.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, ayni kunda dunyoda 10 milliondan ziyos bolaga autizm tashxisi qo'yilgan. Har yili bu ko'rsatkich 11 foizga ortiq bormoqda. Ya'ni o'tgan asrning 90 yillaridan har 5000 nafar boladan bittasiga autizm tashxisi qo'yilgan bo'lsa hozirda bu ko'rsatkich har 50 bolaga tog'ri kelmoqda. Bu global muammodan O'zbekiston ham chetda qolayotgani yo'q. hozirda yurtimizda ham 200 dan ziyod autizm tashxisi qo'yilgan bolalar ro'yhatga olingan. Aziz onlar bu sonlar ko'payish yoki kamayib yo'q bo'lib sindrom ustidan g'alabaga yetish o'z qo'limizda. O'zimiz bolalarimizni sog'lom va baquvvat qilib jamiyatning kerakli bir bo'lagi bo'lishiga e'tiborli bo'laylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://med24.uz/uz/bolezn/autizm>
2. Klisheeva Guljan AUTIZM SINDROMI BO'LGAN BOLALAR // EJMTCS. 2024. №7.
3. Yoqubova Hurriyat, Isaqova Madina MAKTABGACHA YOSHDAGI AUTIZM SPEKTTLI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI // SAI. 2024. №Special Issue 25.
4. Nurmatova, Durdona Gafurjon Qizi AUTIZM SINDROMLI BOLALAR IJTIMOIYLASHUVIDA PSIXOKORREKSION VAZIFALAR // ORIENSS. 2021. №7.

